

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.A.Saparbayeva	
Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar yozish qobiliyatini shakllantirish.....	313
H.M.Asadov	
Mavzu, mazmun va lirik qahramon talqini	318
A.A.Yarkulov	
Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar	322
H.A.DJurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov	
Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni	329
J.DJ.Ashurov, E.X.Bozоров	
Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash	332
D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova	
Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari.....	336
M.I.Imomaliyeva	
Amiriy ijodida Yusuf obrazi.....	339
G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova	
Inson tabiati va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.....	343
N.Maqsudov	
Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi	345
S.A.Olimjonov	
Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin	347
Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva	
O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti.....	351
I.S.Mannopov	
Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri	354

INSON TABIATI VA XARAKTERINI IFODALOVCHI FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЧЕЛОВЕЧЕСКУЮ ПРИРОДУ И ХАРАКТЕР****SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGISMS EXPRESSING HUMAN NATURE AND CHARACTER****Qosimova Guljahon Mahmudovna¹, Ne'matova Muxlisaxon Ilxomjon qizi²****¹Qosimova Guljahon Mahmudovna**

– Farg'ona davlat universiteti, f.f.d

²Ne'matova Muxlisaxon Ilxomjon qizi

– Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilda mavjud bo'lgan til birliklarini muhokama qilishda ingliz va o'zbek tillardagi manbalarga tayanib tahlil qilingan. Inson tabiatiga va xarakteriga oid iboralar va ularning xususiyatlari semantik, grammatik, etimologik va stilistik jihatlardan frazeosemantik maydon doirasida ko'rib chiqilgan. Maqolaning xulosa qismida frazeologik birliklarning qo'llanilish va o'rganilish doirasi milliy qadriyatlar hamda xalq tajribasi sifatida o'rganilishi yoritilgan.

Аннотация

В данной статье языковые единицы, присутствующие в языке, анализируются на основе источников на английском и узбекском языках. В рамках фразеосемантического поля рассматриваются фразы, относящиеся к природе и характеру человека, их характеристика с семантической, грамматической, этимологической и стилистической точек зрения. В заключительной части статьи выделены сферы использования и изучения фразеологизмов как национальной ценности и опыта народа.

Abstract

In this article, the linguistic units present in the language are analyzed based on sources in English and Uzbek languages. Phrases related to human nature and character and their characteristics are considered within the framework of phraseosemantic field from semantic, grammatical, etymological and stylistic aspects. In the concluding part, the scope of use and study of phraseological units are highlighted as national values and people's experience.

Kalit so'zlar: Inson tabiati, frazeosemantika, frazeologizm, frazeosemantik maydon.**Ключевые слова:** природа человека, фразеосемантика, фразеологизм, фразеосемантическое поле**Key words:** human nature, phraseosemantics, phraseologism, phraseosemantic field**KIRISH**

Frazeosemantika bu tilshunoslikning frazeologiya hamda semantika kabi bo'limlari bilan bevosita va bilvosita ish olib boruvchi tilshunoslikning yo'nalishlardan biri bo'lib, u frazeologizmlar, ya'ni iboralar hamda ularning semantik, ma'noli qismlari bilan shug'ullanadi. Tilshunoslikda frazeologik iboralar semantik tomondan asosan 3 turga bo'linib, o'rganilib kelinmoqda, ya'ni frazeologik chatishma (tarkibidagi so'zlarning dastlabki ma'nolariga asoslanmagan, bir butun bog'lanmagan kelib chiquvchi ko'chma ma'noni anglatgan barqaror so'zlar bog'lanmasi), frazeologik birlashma (umumlashtiruvchi ko'chma ma'noni bildirgan barqaror so'zlar bog'lanmasi) va frazeologik qo'shilma.[1,66] Frazeologik iboralarni semantik tomondangina o'rganish bu fanning barcha xususiyatlarini aniqlash uchun imkon bermaydi. Shuning uchun frazeologik iboralarni semantik, grammatik, etimologik va stilistik jihatlardan tekshirish va klassifikatsiya qilish ma'qul. [1,59]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frazeosemantik maydon dunyoning lisoniy manzarasining bir qismi bo'lib, u til birliklari bilan bir qatorda frazeologik birliklardan tashkil topgan. Inson xarakterini tasvirlovchi bir qator frazeologizmlar (iboralar) mavjud bo'lib, ular terisi qalin (beg'am, berparvo), oq ko'ngil (vijdonli), dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi (beparvo, beg'am), arslon yurak (botir, qahramon), qo'li ochiq (saxiy), qo'li qattiq (xasis), qattiq qo'l (talabchan) kabilar misol bo'la oladi. [1,67] Bu kabi iboralarni ko'plab keltirishimiz mumkin, quyida ularning semantik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ingliz va o'zbek tillarida misollar keltiramiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ingliz tilida **pain in the neck** (an irritating, annoying person) [3] O‘zbek tilida “jahli burnining uchida turmoq”. Misol uchun *Sarah is such a pain in the neck these days.* (Saraning shu kunlarda jahli burnining uchida turibdi)

Ingliz tilidagi **a people person** – an easygoing person who gets along with people really well and is a good listener [3] O‘zbek tilida “odamijon inson”. Misol uchun, *Tom is enthusiastic and positive and he is a people person.* (Tom g‘ayratli, yaxshi va odamijon inson)

Ingliz tilida **big mouth** – someone who is not able to keep a secret [3] O‘zbek tilida “og‘zi bo‘sh odam”, ya‘ni biror narsani sir tuta olmaydigan insonga nisbatan qo‘llaniladi. Misol uchun, *Never tell her a secret, she’s got a really big mouth. Sen unga hech qachon siringni aytma, uning og‘zo bo‘sh.*

Ingliz tilidagi **A heart of gold** (a very kind and good nature; generous) O‘zbek tilida “qo‘li ochiq inson, ya‘ni saxiy yaxshi tabiatli insonga nisbatan qo‘llaniladi. Misol uchun, *Ms. Evanson has a heart of gold; she is sincere and friendly.* (Miss Evanson qo‘li ochiq, samimiy, do‘stona inson) [5]

Ingliz tilida **Pink thinker** (positive thinker, optimal thinker) O‘zbek tilida “ijobiy fikrlovchi, barcha narsadan yaxshilik izlovchi inson tabiatiga nisbatan ishlatiladi. Masalan, *Mary always motivates me with her useful advices in each kind of situation, because she is pink thinker lady.* (Meri har qanday vaziyatda ham meni foydali maslahatlari bilan ruhlantiradi, chunki u ijobiy fikrlovchi ayol)

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, nafaqat inson xususiyatiga xos bo‘lgan frazeologik birliklar, balki har qanday frazeologik birlik tilga tayyor holda kirib kelishi bilan birga, uning kelib chiqishi o‘sha xalqning madaniyati, urf-odatlarini, xalq vakillarining to‘plagan tajribalaridan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Bir tildagi frazeologik birlikni boshqa tilda aynan tarjimasini bo‘lmasligi va bunga mos ekvivalent ifatida mavjud bo‘lishi ham aynan til vakillarining dunyoqarashi, vaziyatni baholash va tahlil qilish tushunchalari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Grammatik hamda stilistik ishlatilish o‘rinlarini tilning etimologik jihatlarini o‘rganish hamda lug‘aviy manolarini muhokama qilish orqali tarjima qilishga va ishlatishga tatbiq etish to‘g‘ri bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. LIU, D. 2017. Idioms: Description, comprehension, acquisition, and pedagogy. PEROMINGO, J.P.R. 2010. Corpus Analysis and Phraseology: Transfer of Multi-Word Units. Linguistics & the Human Sciences. UK: Equinox Publishing Ltd.
2. ILYUSHENKO, N.S. 2011. Evaluative Component of Phraseological Units Connotation in English and Russian Language (on the Material of Phraseological Units, Characterizing External Features of a Person).
3. Pinxasov, A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili-T.: O‘qituvchi.
4. KUNIN, A.V. 1989. The Basic Concepts of Stylistics in Phraseology. In: Structure of linguostylistics and its main categories: Collection of studies, pp. 44–49. Perm.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. <https://www.dictionary.com>
7. <https://www.englishlessonviaskype.com>
8. <https://www.powerthesaurus.org>
9. <https://www.native-english.ru>